

Siz covid-19 bilan ogʻriyotgan boʻlsangiz yoki kasallanib oʻtganligingizni bilish uchun test topshirmoqchimisiz?

Agar covid-19 bilan kasallandim yoki kasallanib oʻtganman deb oʻylasangiz, buni tekshirish uchun test buyurtma qilishingiz mumkin. Bunday buyurtma tekin turadi.

Ikki xil turdagi test mavjud boʻlib, birinchi test virus nafas yoʻllaringizda boʻlsa va sizda kasallik alomatlari, yaʼni yoʻtal, tomoq ogʻrigʻi, burun oqishi, issigʻingiz boʻlsa, tana muskullarida ogʻriqlar boʻlsa yoki covid-19 ga tegishli boshqa alomatlar boʻlganda olinadi. Boshqa test esa sizda covid-19 boʻlib oʻtganligini koʻrsatadi.

Kasallik bilan ogʻriyotganlar uchun test

"Alltid öppet" nomli appni Appstore yoki Google Playdan telefoningizga yuklang. Appni ichiga kirib "Provtagning för covid-19" (covid-19 uchun analiz topshirish) ga bosing.

Yoki Stokgolmdagi Capios poliklinikalari internet sahifalariga kirib, "Capiro Coronakoll och Coronaprov" (Capiro korona virusini tekshirish va korona analizi) ga bosing.

Analiz topshirish uchun qatnovchi analiz bekatlariga vaqt belgilashingiz yoki analiz paketini uyga buyurtma qilishingiz mumkin.

Agar sogʻlom boʻlsangiz, sizga sogʻliqni saqlash hozirda korona virusi sizda mavjudligini tekshirish uchun tekinga analiz topshirishni taklif etolmaydi.

Maʼlumotlarning barchasi shved tilida boʻlganligi sababli, agar shved tilida oʻqiy olmasangiz, sizga kimdir yordam bersa maqsadga muvofiq boʻlardi.

13 yoshdan kichik bolalar analizni uyga buyurtma qilolmaydi. Ular qatnov analiz bekatlariga yoki oʻzlarining poliklinikalariga bu masalada murojat qilishlari mumkin.

13 yoshdan katta bolalar oʻzlari uchun Bank ID ochib, analiz topshirishni uyga yoki qatnov analiz bekatlariga buyurtma qilishlari mumkin.

Covid-19 bilan kasallanib oʻtganligini tekshirib koʻrmoqchi boʻlganlar uchun test

Kasallik bilan kasallanib oʻtganligingizni tekshirib koʻrish uchun testni www.1177.se/Stockholm/corona-test-frisk orqali buyurtma qilishingiz mumkin. Testni butunlay tuzalganingizdan keyin 14 kun oʻtib buyurtma qilishingiz mumkin, va siz 15 yosh yoki undan katta boʻlishingiz kerak. Bolalardan analiz olinmaydi.

Agar sizga qoʻshimcha yordam kerak boʻlsa

Testni buyurtma qilish uchun sizda Bank ID boʻlishi lozim. Agar smart telefoningiz yoki Bank IDingiz boʻlmasa yoki applardan foydalanishni bilmasangiz, yoki boshqa muammolar boʻlsa - oʻz poliklinikangizga murojat qiling. 1177 raqami sizga test buyurtma qilishda yordam berolmaydi.

Analiz topshirish haqida shved tilida maʼlumotlar www.1177.se/stockholm/corona-provtagning sahifasida mavjud.